

KORRUPSIYA — OLIY TA'LIM VA INSON MA'NAVIYATI UCHUN YASHIRIN TAHDID

Abdimannobova Sevara Abdiqaxxor qizi

Yuristlar malakasini oshirish markazi mas'ul xodimi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15011599>

Annotatsiya. Ushbu maqolada korrupsiyaning oliy ta'lim tizimi va inson ma'naviyatiga salbiy ta'siri tahlil qilinadi. Korrupsiya nafaqat ta'lim sifatini pasaytiradi, balki jamiyatda adolatsizlik va ishonchsizlik muhitini yaratadi. Shuningdek, u yosh avlodning ma'naviy qadriyatlariga putur yetkazib, ularning kelajakdagi faoliyatiga ham zarar keltiradi. Maqolada korrupsiyaning oldini olish choralari va ta'lim tizimida shaffoflikni ta'minlash yo'llari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Korrupsiya, oliy ta'lim, ma'naviyat, ta'limdagi korrupsiya, notenglik, diskriminatsiya, poraxo'rlik, iqtisodiy zarar.

Korrupsiya bugungi kunda jahon miqyosida dolzarb muammolardan biri bo'lib, nafaqat O'zbekistonda, balki dunyo bo'ylab ko'plab davlatlarda iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy muammolarni keltirib chiqarishda davom etmoqda. Korrupsiya, asosan, davlat organlari va xususiy sektorda noqonuniy faoliyat, resurslarni o'g'irlash, mansabdor shaxslarning o'z vakolatlarini suiiste'mol qilish kabi holatlarni o'z ichiga oladi. Bu muammo jamiyatning barcha sohalariga, jumladan, ta'lim tizimiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida muhim tashkiliy-huquqiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan tizimli islohotlar olib borilmoqda. Ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, uning sifati va samaradorligini oshirish kabi keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, oliy o'quv yurtlariga qabul jarayonlarining shaffofligini ta'minlash, ta'limdagi korrupsiya va poraxo'rlikning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar ham joriy etilmoqda.

Hukumat tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlari takomillashtirildi, xususan, oliy ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari mustahkamlandi. Ishga qabul qilish va xizmat ko'rsatish jarayonlarining shaffofligini ta'minlash, xodimlar va talabalar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'quv dasturlarini ishlab chiqish va joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bundan tashqari, oliy ta'lim tizimida shaffoflik va javobgarlikni oshirish choralari ko'rilmqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan 2024-yilning I yarim yilligidagi korrupsiyaga oid jinoyatchilik tahlil qilinib, tahlillarga ko'ra, mazkur davrda 3837 nafar shaxs korrupsiyaga oid jinoyat sodir etgani uchun sudlar tomonidan jinoiy javobgarlikka tortilgan¹. Jumladan, tijorat banklarida 146 (186), sog'liqni saqlash vazirligi tizimida 145 (177), huquqni muhofaza qiluvchi organlarda 122 (128), **Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida 52 (64)**, bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tizimida 30 (40), qishloq xo'jaligi vazirligi tizimidagi 30 (33) xodimlar tomonidan korrupsion jinoyatlar sodir etilgan.

Ta'limdagi korrupsiya – ta'lim sohasi mansabdor shaxslari yoki xodimlarining o'qishga kirish, sinovlarni ijobiy baholash, ballarni noqonuniy oshirish va ta'lim muassasasini

¹ O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi // URL: <https://anticorruption.uz/oz/article/2024-yilning-i-yarim-yilligidagi-korrupsiyaga-oid-jinoyatchilik-tahlil-qilindi>

sertifikatlash kabi ishlar uchun pul olishi yoki boshqacha tarzda manfaatdorligiga oid huquqbuzarlik².

Oliy ta'limdagi korrupsiya nafaqat ta'lim tizimiga, balki jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham jiddiy zarar yetkazadi. Korrupsiyaga qarshi kurashishda faqat iqtisodiy va siyosiy chora-tadbirlar emas, balki ma'naviy va axloqiy yondashuvlar ham zarur. Korrupsiya inson ma'naviyatiga jiddiy tahdid soladi. U odamlarda halollik, ishonch va adolat tuyg'usini yo'qotadi. Korrupsiyaga moyil bo'lgan jamiyatda adolatsizlik, zo'ravonlik va ijtimoiy tartibsizlik kuchayadi. Bu esa, o'z navbatida, insoniyatning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi va jamiyatni qorong'u va adolatsiz hayotga boshlaydi. Korrupsiya uzluksiz ravishda "odatiy" bo'lib boradi va bu holat jamiyatda axloqiy qadriyatlarining yomonlashishiga olib keladi.

Korrupsiya keng tarqalgan jamiyatlarda, insonlarning bir-birlariga ishonchi pasayadi. Agar insonlar o'zlarini doimiy ravishda poraxo'rlik va aldovlar bilan o'rab turgan jamiyatda yashasa, ular o'zaro ishonchni va hamkorlikni yanada qiyinlashtiradi. Bu esa jamiyatning umumiy ruhiy va ma'naviy ahvolini yomonlashtiradi. Korrupsiya eng avvalo adolatsizlikni kuchaytiradi, chunki bu holatga tushganlar faqat o'zlariga yoki tanishlariga foyda keltirganlar bo'ladi, boshqa odamlar esa imkoniyatlardan mahrum bo'ladilar. Bunday holatlarning uzluksiz takrorlanishi jamiyatda ijtimoiy tafovutlarni kuchaytiradi va adolatga bo'lgan ishonchni yo'qotadi. Insonlar o'z hayotlarini o'zgartirish uchun hamkorlik qilish o'rniga, faqat o'z manfaatlarini ko'zlashga yo'naltiradilar.

Korrupsiya, ayniqsa oliy ta'lim va ilm-fan sohalarida chuqur ta'sir ko'rsatadi. Agar ta'lim tizimi korrupsiya bilan buzilgan bo'lsa, yangi avlodlar noto'g'ri qadriyatlar bilan tarbiyalanadi, bu esa butun jamiyatning ma'naviy darajasini pasaytiradi. Oliy ta'limda korrupsiya talabalarning bilim olishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu ularni halol mehnatga ishonchsiz qiladi, bilim olish uchun pora berishga majbur qiladi va o'z imkoniyatlarini to'liqroq ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qiladi. Natijada, talabalarning raqobatbardoshligi pasayadi va jamiyatda adolatsizlik kuchayadi.

Oliy ta'lim tizimidagi korrupsiyaning turli ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

Poraxo'rlik: Talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi pora olish va berish holatlari. Masalan, o'qishga kirish uchun, imtihonlarni topshirish yoki kurs ishlari, diplom ishlarini tayyorlashda pora talab qilish.

Qonunbuzarliklar va noqonuniy amallar: O'qituvchilar tomonidan talabalar yoki boshqa xodimlarga qarshi qonunbuzarliklar, masalan, noto'g'ri imtihon baholari, talabalarni o'qitishda natijaga erishish uchun shaxsiy manfaatlar ko'zlash.

Kadrlar tayinlashda korrupsiya: Oliy ta'lim muassasalarida rahbarlar yoki boshqaruv organlari tomonidan ishlarga nomzodlarni tanlashda yomon niyatli qarorlar qabul qilish, tanish-bilishlik va tug'ma imkoniyatlar asosida lavozimlarga tayinlash.

Ta'limda notenglik va diskriminatsiya: Oliy ta'lim muassasalarida kadrlar tanlashda, ilmiy ishlarda yoki imtihonlarda tengsizlik va diskriminatsiya holatlari. Ba'zi talabalar ko'proq imtiyozga ega bo'lsa, boshqalari o'z imkoniyatlarini amalga oshirishda qiyinchiliklarga duch

² Б.И.Исроилов, Э.Ф.Гадоев. Коррупция тушунчаси ва унга қарши курашишга оид атамалар изоҳли луғати [Матн] /И.Б. Ибрагимович, Э.Ф. Гадоев Тошкент: "Tafakkur" нашриёти, 2019. – 168 б. 14 <https://uzmarkaz.uz/uploads/2022/10/korruptcia-va-unga-karsi-kurasishga-oid-atamalar-amda-iboralar-izoli-lugati.pdf>

keladi.

Imtihonlarda pul to'lash: ba'zi talabalar imtihonlarni topshirishda o'qituvchilarga pul yoki boshqa foyda taklif qilishadi, bu esa imtihon natijalari va bilimning haqiqiyligini so'ndiradi.

Diplomlar sotish: bir nechta oliy o'quv yurtlarida talabalar o'z diplomlarini olish uchun yomon baholarni yuqori baholarga aylantirish yoki tugatmagan ishlarini to'ldirish uchun pul to'laydilar.

Ilmiy ishlarni sotish: o'qituvchilar va talabalar o'rtasida ilmiy ishlarni sotib olish yoki sotish orqali plagiarizm keng tarqalgan.

Oliy ta'limda korrupsiyaning oqibatlari:

1. Ta'lim sifatining pasayishi: Korrupsiya natijasida imtihonlar va baholarni adolatli va sifatli baholash o'rniga, pullik to'lovlar yoki boshqa moddiy manfaatlar asosida baholash amalga oshiriladi. Bu esa talabalar va o'qituvchilarning bilim darajasining pasayishiga olib keladi.

2. Talabalar orasida adolatsizlik: Korrupsiya tizimida faqat pullik imkoniyatlarga ega bo'lgan talabalar yuqori natijalarga erishadi. Bu holat ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi va ko'plab talabalarning o'qishga bo'lgan ishonchini yo'qotishiga olib keladi.

3. Ilmiy ishlarga salbiy ta'sir: Korrupsiya ilmiy ishlarning sifatiga ta'sir qiladi. Plagiat va soxta ilmiy ishlar ko'payishi, ilm-fanning rivojlanishini to'xtatadi va sohaning xalqaro miqyosda raqobatbardoshligini kamaytiradi.

4. Iqtisodiy zarar: Korrupsiya iqtisodiyotning samarali rivojlanishiga to'sqinlik qiladi, chunki oliy ta'lim tizimi salohiyatli mutaxassislarni tayyorlash o'rniga, moddiy manfaatlarni ko'zlab ishlaydi. Bu esa iqtisodiy o'sishni sekinlashtiradi.

5. Ijtimoiy barqarorlikka tahdid: Ta'lim tizimida korrupsiya ijtimoiy barqarorlikni buzadi. O'qish uchun haq to'lash imkoniyatiga ega bo'lmagan odamlar jamiyatda norozi bo'lishi mumkin. Bu esa ijtimoiy notenglikka olib keladi va jamiyatni keskinlashishga olib keladi.

6. Davlatning rivojlanishiga salbiy ta'sir: Yomon ta'lim sifati davlatning ilmiy, texnologik va iqtisodiy rivojlanishini sekinlashtiradi, chunki har qanday jamiyatning kelajagi uning ta'lim tizimiga bog'liq.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev o'zining "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" asarida "Ma'lumki, har qanday jamiyat alohida insonlardan tashkil topadi. Adolatli va yetuk, mukammal jamiyatni faqatgina komil insonlarni tarbiyalash orqali qurish mumkin"³ deb bejiz ta'kidlamagan. Negaki, avvalo insonlarda korrupsiyaga qarshi immunitet shakllansa, ular korrupsion holatlarga qarshi tura oladi. Oliy ta'limdagi korrupsiyaga qarshi kurashish uchun birgalikda harakat qilish kerak. Bu borada:

- Talabalar o'z huquqlarini himoya qilishlari va pora berishdan bosh tortishlari;
- O'qituvchilar axloqiy qadriyatlarga ega bo'lishlari va talabalardan pora olmaganliklari;
- Rasmiylar korrupsiyaga qarshi qat'iy kurash olib borishlari va poraxo'rlikni yo'q qilish uchun samarali choralar ko'rishlari;
- Jamoatchilik ham korrupsiyaga qarshi kurashda faol ishtirok etishi va korrupsiya hodisalarini oshkor qilishi kerak.

Dunyo mamlakatlarida korrupsiyaga qarshi kurashish holati

³ Mirziyoyev, Shavkat. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. -Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. - 327-bet

Finlandiya oliy ta'lim tizimida ham ba'zan korrupsiyaviy holatlar uchrab turadi. Lekin jamiyat korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashadi va jinoyatchilarga jazo muqarrar bo'ladi. Finlandiyada korrupsiyaga qarshi kurashadigan alohida organ yoki qo'mita mavjud emas. Bunday funksiyalarni mamlakatda Adliya vazirligi bajaradi. **Buyuk Britaniya** universitetlarida korrupsiya birmuncha kam va unchalik ko'zga tashlanmaydi. Buni abituriyentlarning o'qishga kirish imkoniyati yaxshiligi bilan izohlash mumkin. Qabul soni ko'p bo'lsa, o'qishga kirish uchun korrupsiyadan foydalanish ehtimoli ham ancha kamayadi. **AQSHdagi Auburn va Denver universitetlarining akademik halollik kodekslari** mavjud bo'lib, kodeksda professor-o'qituvchi va talabalarning akademik insofsizligi yuzasidan xabar berish bilan bog'liq bo'lim kiritilgan. Unda bakalavriat bosqichi talabalari bakalavriat professoriga, magistratura va undan yuqori bosqich talaba va nomzodlar prorektorga elektron pochta orqali murojaat qilishlari mumkin. **Misrda** akademik insofsizlikning oldini olish maqsadida imtihon savollarini mum bilan muhrlangan qutilarga solib, qo'riqlash uchun politsiyaga yuboradi. Hattoki imtihon savollarini oldindan noqonuniy oshkor qilganlarga jinoiy javobgarlik mavjud⁴.

Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi har bir davlatda milliy va xalqaro ko'lamda rivojlanib, jiddiy qonuniy, ijtimoiy va siyosiy choralarning kompleksini o'z ichiga oladi. Korrupsiyani kamaytirish uchun har bir insonning o'ziga xos mas'uliyati bor va bu jarayon global miqyosda hamkorlikni talab etadi. O'zbekistonning taraqqiyoti va jamiyatning kelajagi uchun oliy ta'lim tizimining pokligi va adolatliligi juda muhimdir.

Korrupsiya global miqyosda jiddiy muammolarni keltirib chiqaradigan, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni sekinlashtiradigan murakkab hodisadir. O'zbekiston hukumati va xalqaro tashkilotlar birgalikda olib borgan sa'y-harakatlari, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashishdagi qat'iy pozitsiyasi bu muammoni bartaraf etishda muhim rol o'ynashi mumkin. Biroq, bu jarayonni to'liq amalga oshirish uchun uzoq muddatli islohotlar va jamiyatning har bir a'zosining faol ishtiroki zarur. Faqatgina hukumat va fuqarolarning birgalikdagi harakatlari, shu bilan birga, shaffoflik, mas'uliyat va huquqiy tizimning mustahkamligi orqali korrupsiyaga qarshi kurashda samarali natijalarga erishish mumkin.

Oliy ta'lim sohasida korrupsiya jiddiy muammo bo'lib, unga qarshi samarali kurashish faqat hukumat va ta'lim muassasalari o'rtasidagi yaqin hamkorlik, shaffoflikni oshirish, korrupsiya holatlarini oshkor qilish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Korrupsiya nafaqat iqtisodiy zarar yetkazadi, balki inson ma'naviyatiga ham yashirin tahdid soladi, chunki u axloqiy qadriyatlarni, haqiqatni va adolatni o'zgartiradi. Shu sababli, korrupsiyaga qarshi kurashish nafaqat iqtisodiy manfaatlar uchun, balki jamiyatning ma'naviy va axloqiy yuksalishi uchun ham juda muhimdir.

O'zbekistonda korrupsiyaviy holatlarning oldini olish uchun keng qamrovli va tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu chora-tadbirlar orasida huquqiy islohotlar, ochiqlikni ta'minlash, davlat xizmatlarini raqamlashtirish, xodimlarni axloqiy tarbiyalash, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va jamoat nazoratini ta'minlash kabi masalalar mavjud. Biroq, korrupsiyani to'liq oldini olish uchun bu jarayonlarning uzluksiz va samarali amalga oshirilishi, shuningdek, jamiyatda korrupsiya va adolatsizlikka nisbatan to'liq salbiy munosabatni

⁴ Коррупция: олий таълим учун яширин таҳдид [Матн]: методик қўлланма / Ш.Муродуллаев, Т.Маматалиев, Д.Аликулов. – Т.: “Yetakchi nashriyoti”, 2024 й. – 32 б. 15 <https://devedu.uz/wp-content/uploads/2024/01/11.-Korrupsiya-oliy-ta%CA%BClim-uchun-yashirin-tahdid.pdf>

shakllantirish zarur.

Oliy ta'lim tizimida korrupsiyani bartaraf etish uchun quyidagi choralarni ko'rish kerak:

- Ochiqlik va shaffoflikni kuchaytirish;
- Qonunlarni takomillashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashni kuchaytirish lozim.
- Talabalar va o'qituvchilarning huquqlarini himoya qilish va ularning ishonchini oshirish kerak.
- Talabalarning bilimlarini baholash tizimini takomillashtirish va shaffoflikni kuchaytirish kerak.
- Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurash madaniyatini shakllantirish va korrupsiya hodisalarini oshkor qilishni rag'batlantirish kerak.
- Jamoatchilik nazoratini kuchaytirish lozim.

Shuningdek, kadrlarni tanlash va baholashda shaffoflikni yo'lga qo'yish, Oliy ta'lim muassasalarida rahbarlik va o'qituvchilarni tanlashda shaffoflikni oshirish, tenglikni ta'minlash va ob'ektiv mezonlar asosida qarorlar qabul qilish lozim. Ta'lim jarayonini raqamlashtirish, imtihonlar, baholar va boshqa ta'lim jarayonlarini elektron tizimlar orqali amalga oshirish, bu esa korrupsiyaga yo'l qo'ymaslikka yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>;
2. O'zbekiston Respublikasining 03.01.2017 yildagi "O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-son Qonuni // URL: <https://lex.uz/docs/-3088008>;
3. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. -Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. - 327-bet
4. Б.И.Исроилов, Э.Ф.Гадоев. Коррупция тушунчаси ва унга қарши курашишга оид атамалар изоҳли луғати [Матн] /И.Б. Ибрагимович, Э.Ф. Гадоев Тошкент: "Tafakkur" нашриёти, 2019. – 14 бет.
5. Коррупция: олий таълим учун яширин таҳдид [Матн]: методик қўлланма / Ш.Муродуллаев, Т.Маматалиев, Д.Алиқулов. – Т.: "Yetakchi nashriyoti", 2024 й. – 15 бет.
6. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi // URL: <https://anticorruption.uz/oz/article/2024-yilning-i-yarim-yilligidagi-korrupsiyaga-oid-jinoyatchilik-tahlil-qilindi>.